# BOLALAR RUHIY SAMOLATLIGINI QO‘LLAB-QUVVATLASHDA OTA-ONALAR MUNOSABATLARINING O‘ZARO DIALEKTIK ASOSLARI

**S.T.Mo‘minboyeva**
Guliston Davlat pedagogika Instituti
“Pedagogika va psixologiya” kafedrasi magistranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bolalar ruhiy salomatligini shakllantirishda ota-ona va bola munosabatlarining dialektik qonuniyatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda oiladagi muloqotning miqdoriy to‘planishi, bolaning ruhiy barqarorligi kabi sifat o‘zgarishlariga o‘tishi, ziddiyatlarning rivojlanish omili sifatidagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy raqamli muhitda ushbu munosabatlarni korreksiya qilish bo‘yicha pedagogik tavsiyalar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Bolalar ruhiy salomatligi, ota-ona munosabatlari, dialektik asoslar, dialektik qonuniyatlar, miqdoriy to‘planish, sifat o‘zgarishlari, ruhiy barqarorlik, ziddiyatlar rivojlanishi, pedagogik tavsiyalar, korreksiya qilish, raqamli muhit, oila muloqoti, shaxs shakllanishi, pedagogik-psixologik omillar, ijtimoiy muhit.

**KIRISH.** Mavzuning dolzarbligi. Bugungi jadal o‘zgarib borayotgan global axborotlashuv va texnologik taraqqiyot davrida yosh avlodning ruhiy salomatligini muhofaza qilish nafaqat tibbiy-biologik, balki ustuvor ijtimoiy-pedagogik masalaga aylandi. O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlari doirasida sog‘lom va barkamol shaxsni shakllantirish, ayniqsa, bolalarning ruhiy barqarorligini ta’minlashda oila va ota-onalar bilan hamkorlik tizimini yangi bosqichga ko‘tarish talab etilmoqda. Bolalar ruhiy salomatligini qo‘llab-quvvatlash va ota-onalar munosabatlari o‘zaro uzviy bog‘liq, dinamik va ziddiyatli jarayon bo‘lib, u sof dialektik xarakterga egadir. Bola bugun kattalar yordami bilan bajara olgan ishini ertaga mustaqil bajara oladi. Hayotning ilk bosqichlarida ota-ona tomonidan olingan g‘amxo‘rlik miqdori bolaning butun umrlik ruhiy muvozanatini belgilab beradi. .Bu jarayonda ota-ona shunchaki nazoratchi emas, balki bolaning ruhiy rivojlanishini yo‘naltiruvchi vositachidir. “Intellektual rivojlanish” — bu tashqi muhitdan olingan ma’lumotlar va ichki tuzilmalarning o‘zaro dialektik muvozanatlashuvi jarayonidi. Oila muhitidagi pedagogik korreksiya bolaning ruhiy

barqarorligini ta’minlashda dori-darmondan ham ko‘ra kuchliroq ta’sirga ega. Dialektika qonuniyatlariga ko‘ra, bolaning ruhiy rivojlanishi tekis chiziqli harakat emas, balki “miqdor o‘zgarishlarining sifat o‘zgarishlariga o‘tishi” masalan, ota-ona mehrining muntazamligi bolada ruhiy immunitet shakllanishiga olib kelishi hamda “qarama-qarshiliklar birligi va kurashi” erkinlik va nazorat muvozanati orqali sodir bo‘ladi. Hozirgi kunga qadar bolalar ruhiy salomatligi ko‘p hollarda faqat klinik yoki tor doiradagi psixologik yondashuvlar asosida o‘rganib kelingan. Shaxs rivojlanishining ontogeneziga nazar tashlaydigan bo‘lsak inson ontogenezidagi ruhiy rivojlanish – bu faqat miqdoriy o‘sish emas, balki sifat o‘zgarishlarining uzluksiz almashinuvidir. Agar bolaning oilada xavfsizlik va mehrga bo‘lgan ehtiyojlari qondirilmasa, uning intellektual va ruhiy rivojlanishi to‘xtab qoladi. Ona va bola o‘rtasidagi mustahkam emotsional bog‘lanishlar bolaning butun umr davomidagi ruhiy sog‘lomligining immunitetidir. Ota-ona bolaning xatolarini jazolash orqali emas, balki o‘sha xatodagi dialektik sabablarni tushunish orqali unga yordam berishi kerak. Ota-onalarning o‘z his-tuyg‘ularini qanday boshqarishi bolaning ruhiy salomatligi uchun “tirik darslik” vazifasini o‘taydi. Har bir yosh bosqichi o‘zidan oldingi bosqichning inkor etilishi va yangi psixologik tuzilmalarning shakllanishi bilan xarakterlanadi. Bolaning ruhiy salomatligi va emotsional barqarorligi uning ijtimoiy muhit bilan, eng avvalo, ota-onasi bilan bo‘lgan muloqotining mazmuniga bog‘liq. Oila — bu bolaning dunyoni anglashidagi ilk va asosiy “ijtimoiy filtri”dir. Har bir inson tug‘ilishidan boshlab hayotning nima ekanligini, insonni o‘rab turgan jamiyki predmetlarning ilk xususiyatlari haqida oilasidan eshitib o‘rganadi. Ota-ona va bola o‘rtasidagi samimiy, ishonchli muloqot bolada “psixologik himoya” tizimini yaratadi. Bunday muhitda o‘sgan bola tashqi dunyodagi ziddiyatli vaziyatlarga nisbatan bardoshli (ruhiy sog‘lom) bo‘lib yetishadi.

**METODOLOGIYA.** Yanada rivojlanayotgan globallashuv jarayonida hamma sohada shu jumladan, bolalar bilan bog‘liq muammolar yetarligina. Bolaning ruhiy dunyosi, undagi travmalar, ruhiy dunyosi buzulishi natijasida atrofidagi do‘stlariga bo‘ladigan munosabati, darslarga qiziqishiga ham jiddiy ta’sir ko‘rsatmay qolmaydi. Boladagi salbiy o‘zgarishlar birinchi o‘rinda o‘qituvchisiga seziladi. Sababni aniqlashga harakat qilib ota-ona bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yadi. O‘qituvchida malaka yetarli bo‘lsa bolaning ontogenezidan boshlab o‘rgandi. Oila — bu shaxs shakllanadigan shunchaki makon emas, balki o‘zaro psixologik ta’sirlarning murakkab tizimidir. Bolaning ruhiy salomatligi ota-onaning unga bo‘lgan munosabati va oiladagi umumiy emotsional iqlimning mahsulidir. Tadqiqotda nazariy-metodologik asos sifatida dialektik qonuniyatlar va tizimli yondashuv tamoyillari tanlab olindi. Tadqiqot jarayonida E. G‘oziyevning ontogenez psixologiyasi borasidagi qarashlariga tayanib, bolaning ruhiy salomatligi dinamik jarayon sifatida o‘rganildi. Ma’lumotlarni yig‘ishda qiyosiy-pedagogik tahlil va psixologik kuzatish metodlaridan foydalanildi. Bu esa ota-ona munosabatlaridagi o‘zgarishlarning bolaning emotsional sohasiga ta’sirini chuqurroq tahlil qilish imkonini berdi.

Tadqiqotning metodologik asosi sifatida shaxs shakllanishida ijtimoiy muhit va ota-ona munosabatlarining ustuvorligini belgilovchi quyidagi fundamental nazariyalar tanlab olindi. Madaniy-tarixiy rivojlanish va ijtimoiy munosabatlar . L.S. Vigotskiyning nazariyasiga ko‘ra, bolaning ruhiy rivojlanishi “yaqin rivojlanish zonasi” doirasida, ya’ni kattalar birinchi navbatda ota-onalar bilan hamkorlikda amalga oshadi. Dialektik yondashuvda ota-ona va bola munosabatlari shunchaki muloqot emas, balki tashqi ijtimoiy shakldan ichki psixologik xususiyatga o‘tish interiorizatsiya jarayonidir. G‘.B. Shoumarov tadqiqotlarida esa oilaviy munosabatlarning etnik va psixologik jihatlari yoritiladi. Uning yondashuvi bolaning ruhiy salomatligini oiladagi psixologik iqlim va ota-onalarning pedagogik madaniyati bilan bog‘liq holda o‘rganish imkonini beradi. Kognitiv va intellektual kamolot dialektikasi. E.G‘. G‘oziyev o‘z asarlarida bolaning bilish jarayonlari va faoliyat motivlari shakllanishida ota-onaning o‘rnini fundamental tahlil qilgan. Uning fikricha, ota-ona va bola o‘rtasidagi dialektik aloqa bolada mustaqil fikrlash va ijtimoiy adaptatsiyani ta’minlovchi asosiy omildir. M. Montessori tizimi esa bolaning “absorbsion zehni” (yutuvchi ong) tushunchasi orqali metodologiyani boyitadi. Bu yerda ota-onaning vazifasi — bolaga tayyor bilim berish emas, balki uning ruhiy salomatligi va o‘z-o‘zini rivojlantirishi uchun zarur bo‘lgan erkin va xavfsiz “tayyorlangan muhit”ni yaratishdir. Emotsional bog‘liqlik va

ehtiyojlar iyerarxiyasi. J. Boulbi tomonidan ilgari surilgan “bog‘liqlik nazariyasi” tadqiqotning emotsional poydevorini tashkil etadi. Ota-ona bilan erta yoshdagi xavfsiz bog‘liqlik — bolaning kelajakdagi ruhiy barqarorligi va depressiv holatlardan himoyalanganligining kafolatidir. A. Maslou nazariyasiga tayanib, bolaning ruhiy salomatligi uning bazaviy ehtiyojlari qondirilishi bilan bog‘liq deb qaraladi. Ota-ona munosabatlari bolaning o‘z-o‘zini namoyon qilish darajasiga chiqishi uchun dialektik platforma vazifasini o‘taydi. Insonparvarlik va hamkorlik pedagogikasi. Sh. Amonashvili tomonidan ishlab chiqilgan “Insonparvarlik pedagogikasi” prinsiplari ota-ona va bolani teng huquqli sub’ektlar sifatida ko‘radi. Tadqiqot metodologiyasida bolaga shaxs sifatida qarash, uning ruhiy dunyosiga nisbatan “ma’naviy akusherlik” qilish g‘oyasi ota-onalar munosabatlarining asosiy mezoni sifatida olinadi.

**MUHOKAMA VA NATIJA.** Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, bolalar ruhiy salomatligini muhofaza qilishda ota-ona va bola munosabatlari faqatgina tarbiyaviy emas, balki chuqur psixologik-dialektik jarayondir. Ushbu jarayonni tahlil qilishda jahon va mahalliy psixologiya maktablarining yondashuvlari o‘zaro hamohanglik kasb etadi. L.S. Vigotskiy va J. Boulbi nazariyalari bolaning ruhiy barqarorligi tashqi muhit bilan bog‘liqligini isbotlaydi. Agar Boulbi ota-ona bilan emotsional “xavfsiz bog‘liqlik” bo‘lmasa, bolada ichki xavotir va depressiv holatlar shakllanishini ta’kidlasa, Vigotskiy bu munosabatni “yaqin rivojlanish zonasi” orqali tushuntiradi. Ya’ni, ota-onaning qo‘llab-quvvatlashi bolaning ruhiy imkoniyatlarini kengaytiruvchi dialektik kuchdir. Mahalliy olimlarimizdan E. G‘oziyev va G‘. Shoumarov ushbu jarayonni o‘zbek oilasi mentalitetidan kelib chiqib tahlil qiladilar. G‘oziyevning ontogenez psixologiyasiga oid qarashlari bolaning yosh davrlari inqirozini ota-ona bilan hamkorlikda yengib o‘tish zarurligini ko‘rsatsa, Shoumarov oilaviy nizolarning bolaning ruhiy dunyosiga destruktiv ta’sirini dialektik qonuniyatlar asosida yoritib beradi. Uning fikricha, ota-onalar o‘rtasidagi munosabatlar bevosita bolaning ruhiy barqarorligiga ko‘chadi (proeksiyalashadi). A. Maslou va M. Montessori yondashuvlari esa “bolaning ichki erkinligi” tushunchasida birlashadi. Maslouning iyerarxiyasida sevgi va xavfsizlik ehtiyoji qondirilmagan bola ruhiy salomatligida muammolar yuzaga kelishi muqarrar. Montessori esa ota-onaning ortiqcha bosimi avtoritarizm bolaning tabiiy rivojlanish dialektikasini buzishini ta’kidlaydi. Ota-onaning vazifasi — bolani “shakllantirish” emas, balki uning o‘z-o‘zini rivojlantirishi uchun xavfsiz muhit yaratishdir. Nihoyat, Sh. Amonashvilining insonparvarlik pedagogikasi ushbu qarashlarni umumlashtirib, ota-ona va bola munosabatlarini ”ruhiy muloqot” darajasiga ko‘taradi. Muhokamamiz shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy raqamli ziddiyatlar sharoitida ota-onalarning pedagogik-psixologik kompetentligini oshirish nafaqat tarbiyaviy, balki bolaning ruhiy salomatligini saqlovchi terapevtik ahamiyatga ega.

**XULOSA.** Ushbu olimlarning nazariyalari shuni tasdiqlaydiki, bolalar ruhiy salomatligi, Boulbi va Vigotskiy bo‘yicha: Ijtimoiy hamkorlik va emotsional xavfsizlik, G‘oziyev va Shoumarov bo‘yicha: Yosh xususiyatlari va milliy tarbiya madaniyati, Maslou va Montessori bo‘yicha: Bazaviy ehtiyojlar va erkin faoliyat, Amonashvili bo‘yicha: Shaxsga nisbatan cheksiz hurmat va mehr asosida shakllanadi. Tadqiqot davomida o‘rganilgan nazariy manbalar va amalga oshirilgan tahlillar asosida quyidagi yakuniy xulosalarga kelindi: Munosabatlarning Dialektik Birshaxsligi: Bolalar ruhiy salomatligi ota-ona va bola munosabatlarining o‘zaro ta’sirida shakllanuvchi dinamik jarayondir. L.S. Vigotskiyning “ijtimoiy rivojlanish vaziyati” va E. G‘oziyevning ontogenetik qarashlari shuni ko‘rsatadiki, ota-ona nafaqat tarbiyachi, balki bolaning ruhiy dunyosini quruvchi “arxitektor” vazifasini o‘taydi. Ota-ona munosabatidagi barqarorlik bolaning ichki intellektual va emotsional o‘sishiga bevosita turtki beradi. Emotsional Himoya Tizimi: J. Boulbi va G‘. Shoumarovning yondashuvlarini sintez qilgan holda aytish mumkinki, oiladagi sog‘lom psixologik muhit bolaning tashqi dunyodagi ziddiyatlarga (shu jumladan, raqamli tahdidlarga) nisbatan “psixologik immuniteti”ni shakllantiradi. Ota-ona bilan o‘rnatilgan xavfsiz bog‘liqlik bolaning ruhiy tushkunlik va xavotirlanish darajasini pasaytiruvchi asosiy himoya mexanizmidir. Shaxsga Yo‘naltirilgan Muhit: M. Montessori va A. Maslou nazariyalari xulosasi shuni ko‘rsatadiki, bolaning ruhiy salomatligini qo‘llab-quvvatlash uchun uning bazaviy ehtiyojlarini (sevgi, xavfsizlik, e’tirof) qondirish bilan birga, unga tanlov erkinligini berish lozim. Avtoritar nazoratdan voz kechib, bolaning o‘z-o‘zini namoyon qilishiga sharoit yaratish — uning

ruhiy butunligini saqlashning garovidir. Insonparvarlik Hamkorligi: Sh. Amonashvilining "hamkorlik pedagogikasi" asosida ota-ona va pedagoglar o‘rtasidagi dialektik aloqani rivojlantirish zarur. Bolaning ruhiy salomatligi faqat oila ichidagi munosabat emas, balki "oila-maktab-bola" uchligidagi ma’naviy va psixologik muvofiqlik natijasidir. Ota-onalarning psixologik savodxonligini oshirishga qaratilgan “Oila-maktab” hamkorlik platformalarini yaratish, ularda yuqorida nomi keltirilgan olimlarning metodikalaridan (masalan, Montessori muhiti va Amonashvili insonparvarligi) foydalanish bolalar ruhiy salomatligini barqarorlashtirishda yuqori samara beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. . L.S. Vigotskiy — "Psixologiya razvitiya cheloveka" (Inson rivojlanishi psixologiyasi)
2.Shoumarov G‘.B. Oila psixologiyasi. – Toshkent: "Sharq", 2010. – 296 b.
3. G‘oziyev E.G‘. Ontogenez psixologiyasi. – Toshkent: "Noshir", 2010. – 360 b.
4. To‘rayev M. Bolalar psixologiyasi va pedagogikasi
5. Abraham Maslow — "Motivation and Personality" (Motivatsiya va shaxsiyat)
6. Baratov Sh.R. Psixologik xizmat asoslari. – Toshkent: "O‘qituvchi", 2014.
7.John Bowlby — "A Secure Base" (Xavfsiz baza/asos)
8. Maria Montessori — "The Absorbent Mind" (Yutuvchi ong)
9. Sh.A. Amonashvili — "Osnovi gumannoy pedagogiki" (Insonparvarlik pedagogikasi asoslari)
10.Bronfenbrenner U. The Ecology of Human Development: Experiments by Nature and Design. – Harvard University Press, 1979.